

ISSN 3060-4664

METODIST

ILMIY-INNOVATSION, METODIK JURNAL



2024/4

<https://metoda.uz/>
https://t.me/metodist_jurnali_1

"Metodist" 2024-yil 4-son



ISSN 3060-4664

METODIST

ILMIY-INNOVATSION, METODIK JURNAL

2024
4-son

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan ro'yxatga olingan. Guvohnoma №229146

MUNDARIJA

BOSH MUHARRIR MINBARI

Husanboyeva Q. Dardlarni bir she'rga joylash siri yoki qolipga tushmas tuyg'ular tasviri (nashr ettirishga ulgurmay qolingan to'plamga yozilgan so'zboshi).....3

ONA TILI TA'LIMI METODIKASI

Isaqova B. Orfografik savodxonligi bo'sh bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda innovatsion yondashuv.....16

MUMTOZ ADABIYOTNI O'QITISH METODIKASI

Qodirov V., Jumaniyazova I. Ijod maktablari 7-sinfida mumtoz lirik janrlarni o'rganish.....23

QORAQALPOQ ADABIYOTINI O'RGANISH METODIKASI

Yusupov Q. O'serbay Xojaniyazov dóretiwhiligin úyreniw texnologiyalari.....31

MUSIQA TA'LIMI METODIKASI

Sultonov A. Maqom va mumtoz musiqiy asarlarni qayta ishlash.....39

INFORMATIKA VA AT TA'LIMI METODIKASI

Mamarajabov M., Abdullajonov A. maktab o'quvchilarining xalqaro va milliy ta'lim platformalaridan foydalanish imkoniyatlari45

JISMONIY TARBIYA VA CHQBT TA'LIMI METODIKASI

Axmedov U. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarning ahamiyati54

Turdiboyev O. Jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash59

Urinov A. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining "otish tayyorgarligi" bo'limida integratsiyadan foydalanish65

Nafasov B. Voleybolchiga xos holat va harakatlanishlar texnikasini o'rgatish usullari72

Otaboyev A. Boshlang'ich sinflar uchun sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda jismoniy tarbiya o'qituvchisining o'rni78

OLIY TA'LIM MUAMMOLARI

Yo'ldoshev Sh. Ma'naviyatshunoslik darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning dolzarbligi88

TABRIKLAYMIZ – QUTLAYMIZ

Utebayev T. Belgili alim ham zabardes pedagog (professor Qonibay Yusupov 60 jasta)96

TA'LIM SAMARADORLIGI SARI YANA BIR QADAM

Fozilova R. To'g'ri tashkil etilgan ota-onalar majlislari – ta'lim samaradorligi garovi.....106

O'QITUVCHI IJODIDAN

Ergasheva M. She'rlar117

Mualliflarning fikrlari tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin. Maqolalardagi fikr va mulohazalarning haqqoniyligi va to'g'riligiga mualliflar mas'uldirlar.

BOSH MUHARRIR MINBARI

DARDLARNI BIR SHE'RGAGA JOYLASH SIRI YOKI QOLIPGA TUSHMAS TUYG'ULAR TASVIRI

(nashr ettirishga ulgurmay qolingan to'plamga yozilgan so'zboshi)



Qunduzxon HUSANBOEVA

Pedagogika fanlari doktori,

SamDU professori

El-manzil: qunduz56@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada taniqli shoira Xolbibi Sadinova (joyi jannatlarda bo'lsin) qalamiga mansub "Topganim sen... Yo'qotganim sen" nomli she'rlar to'plamidan o'rin olgan ayrim bitiklar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: nomsiz she'r, so'z yuki, ko'ngil kishilari, shoir, she'rxon, dildosh, ruhiy yaqinlik, ruhiy muvozanat.

So'zning yuki og'ir bo'ladi. Buni so'z bilan ishlaydigan kishilar – yozuvchilar, adabiyotshunoslar, adabiyotni o'qitish ishi bilan shug'ullanadigan mutaxassislar – ko'ngil kishilari yaxshi bilishadi. Shoirlar bu borada alohida ajralib turadilar va ular har bir so'zni ko'ngillaridan o'tkazib, unga dardlarini "yuqtirib" satrlarga tizadilar. Hech qanday mezonlarga tushmaydigan, o'lchovlarga sig'maydigan, qoliplarga tushmaydigan va boshqarib bo'lmaydigan tuyg'ulari-yu, xayollarini tizimga solib muxlislariga havola etadilar.

Ikkinchi tarafdagi ko'ngil kishilari tabiatan tizimga solingan so'zga – she'riyatga moyil bo'lishadi. She'rdagi tuyg'ular ifodasiga, satrlar qatiga berkitilgan dil og'riqlariga tabiiy ravishda sherik hamfikirlik, ruhiy yaqinlik demakdir. Ruhan bir-biriga yaqin

birgalikda tekshirish yaxshi natija beradi. O'quvchining o'ziga diktant, bayon yoki inshosini o'qitib turib, xatosini toptirish va tuzatish lozim. Bunday metodik ish turi haftada bir marta tashkil etilsa ham, o'quvchilar savodxonligini oshirishga katta yordam beradi.

Bunday o'quvchilar bilan tashkil etiladigan ishlarning yana bir uyda o'tkaziladigan diktantlardir. Bunday diktantlarni o'tkazishda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar iqtidorli o'quvchilarga birlashtiriladi. Ularni birlashtirishda yashash joyi hisobga olinishi lozim. Ularning har biri uyda o'tkaziladigan yozma ishlar uchun alohida daftar tutishlari va haftada ikkita diktant, bayon yoki insho yozishlari lozim bo'ladi.

Diktant matnini bir-birlariga aytib bo'lishgach, yozilgan ish matn bilan solishtiriladi va xatolar tuzatiladi. Bu ish turi bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni qiziqtirib, xatosiz yozishga undaydi. O'qituvchi vaqti-vaqti bilan shu daftarni ko'zdan kechirib, o'zining fikr-mulohazalarini aytib turadi.

Bo'sh o'zlashtirgan o'quvchiga birlashtirilgan iqtidorli o'quvchi faqat diktant, bayon, insho yozdirish bilan qanoatlanib qolmay, unga o'tilgan darslarni takrorlash, uyga topshirilgan vazifani sifatli va tushunib bajarishga ham yordamlashadi.

Bo'sh o'zlashtirgan o'quvchida savodxonlik ko'nikmasini hosil qilishning yana bir yo'li, uni maktabda tashkil etilgan orfografiya to'garagiga jalb qilishdir. Bundan tashqari, maktabda tashkil etilgan lug'at doskasi, suhbatlar ham o'quvchilar savodxonligiga bevosita katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xullas, o'qituvchilar o'quvchilarning savodli va bexato yozishga odatlanishi ularning kelajakdagi faoliyatida muvaffaqiyatlar garovi ekanini unutmashligi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs/1625271>

MUMTOZ ADABIYONI O'QITISH METODIKASI

**IJOD MAKTABLARI 7-SINFIDA MUMTOZ LIRIK
JANRLARNI O'RGANISH**



Valijon QODIROV

AndDPI professori

El-manzil:

vqodirov@mail.ru



Intizor JUMANIYAZOVA

TDO'TAU tadqiqotchisi.

El-manzil:

Intizor.jumaniyozova1974@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ijod maktablari 7-sinfida mumtoz adabiyotning kichik lirik janrlarini mualliflik asosidagi metod va usullar bilan o'qitish yo'riqlari xususida so'z yuritiladi. Darsliklarda berilgan she'riy namunalar misolida har bir janrning o'ziga xosligidan kelib chiqib, metod, usul hamda vositalar tanlashishi lozimligi asoslangan.

Kalit so'zlar: g'azal, qit'a, ruboiy, fard, o'qish, tahlil, uqish, xulosa, vazn talabi, ohagini his qilish, qofiya, kichik janr.

Ijod maktablarining 7-sinfi adabiy ta'limida umumta'lim maktablarining darsligi shu tizim uchun chop etilgan darslikka baqamti (parallel) ravishda o'qitib kelinmoqda. Mazkur sinf o'quvchilari uchun tuzilgan dastur va u asosda yaratilgan darsliklarda qit'alar o'rganilishiga salmoqli o'rin ajratilgan. Ularni tahlil qilish, sharhlash g'azal janrini o'rganish davomida

shaklangan ko'nikma va malakalarni mustahkamlaydi, rivojlantiradi.

Mumtoz she'riyat janrlaridan ruboiy, qit'a va fardlarni tahlil qilishda biz o'zimiz ishlab chiqqan yangi **O'TUX** (o'qish, tahlil, uqish, xulosa) **metodini** qo'llash o'qituvchi uchun qulay va o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishini amaliyotda kuzatdik. Qisqa vaqt ichida kichik janr namunasini tezkor, samarali hamda yuqori qiziqish bilan o'zlashtirish imkoniyati bu metodning o'ziga xos jihatidir. To'rt harf metodni qo'llashdagi to'rt bosqichni anglatadi:

1. **O'qish** – bu shunchaki ifodali qiroat emas, balki kichik mumtoz janr yozilgan vazn talabi, ohagini his qilish, qofiyaga, shuningdek, mazmuniy va poetik yuk olgan so'zlarga mantiqiy urg'u berib o'qishdir. O'quvchilar ko'p hollarda hijolarning qisqa va cho'ziqligiga, misralarni ruknlarga bo'linishlariga diqqat qilmaydilar – bunda she'r ohangi buziladi. Kerakli o'rinlarda mantiqiy urg'uning berilmasligi she'rni to'laqonli idrok qilmaslik natijasi hisoblanadi.

2. **Tushunish** – matn tahlilini o'z ichiga oladi: tahlil tushunishning birlamchi vositasi. Bunda tushunilishi qiyin so'zlar ustida ishlash, o'z va ko'chma ma'nodagi so'zlarni idrok etish, matn sintaksisini tahlil qilish va, nihoyat, bildirilgan fikrni tushunib olish amalga oshiriladi. Shoir tomonidan bildirilgan fikrni tushunib olish bu hali uni to'laqonli uqish degani emas.

3. **Uqish** – yuzada qalqib turgan, tahlil orqali anglashilgan ma'no (fikir) botinidagi yoki unga yo'ldosh mohiyatni idrok etishdir. Mazkur qit'ada "xushomad" tushunchasi to'g'ri talqin qilinsa, mohiyat to'g'ri anglashiladi.

4. **Xulosa** – o'quvchining o'zi uchun chiqargan ibratini, bundan keyingi hayoti va o'qish faoliyati uchun umumlashma qarori. Xulosa faqat didaktik mazmundagina bo'lmay, badiiy (poetik), falsafiy xarakterda ham bo'lishi o'qituvchining katta yutug'i sanaladi.

Mazkur metodni qo'llagan holda Navoiyning quyidagi qit'asini ko'rib chiqaylik:

*Kimki maxluq xizmatig'a kamar/
Chust etar — yaxshiroq ushalsa beli./
Qo'l qovushturg'ucha bu avlodur/
Ki aning chiqsa egni,/ sinsa ili./*

Chun xushomad demakni /boshlasa kosh,/
Kim tutulsa dami, /kesilsa tili [1; 54-b.] /

1. **O'qish bosqichi** orqali qit'a vazn talabi, ohagini his qilgan holda, qofiyaga, shuningdek, mazmuniy va poetik yuk olgan so'zlarga mantiqiy urg'u bergan holda o'qituvchi tomonidan ifodali qilib o'qib beriladi (yoki yoddan aytiladi). O'quvchilarning ayrimlari ham o'qituvchiga ergashib, qoidalarga rioya qilgan holda qayta o'qiydilar. She'rdagi ohang orqali mantiqiy urg'uning berilishiga diqqat qaratiladi. She'r ichida qo'yilgan "/" belgisi mantiqiy urg'u olgan so'z yoki iboralarni ifodalash uchun ishlatilgan. O'qituvchi o'quvchilarga murojaat qilib mantiqiy urg'u qaratilgan so'zlarni topishni aytadi. O'quvchilar qit'adagi *ushalsa beli, chiqsa egni, sinsa ili, tutulsa dami, kesilsa tili* kabi so'zlarning alohida ohang bilan aytilayotganiga diqqat qaratadilar. Nima uchun ushbu so'zlarga mantiqiy urg'u berilganligi keyingi bosqichlarda izohlanadi.

Ijod maktabi o'quvchilari aruz vazni haqida ham tushunchaga ega bo'lishlari lozim. O'qituvchi qit'ani vaznga solib o'qib eshittirgach, o'quvchilar ham shu ohang qolipida ifodali o'qiydilar. Sinfidagi bir nechta o'quvchiga ifodali o'qitiladi, barcha birga tinglab, o'qilishdagi yutuq va kamchiliklarni birga ko'rib chiqadilar.

2. **Tushunish bosqichi.** Birinchi o'quvchi qit'ani ifodali o'qigach, notanish so'zlar lug'ati tuziladi.

Maxluq – yaratilgan

Dam – nafas

Chust etmoq – bog'lamoq

Avlo – afzal, yaxshiroq

Matnning grammatik qurilishi ustida ishlanadi. Misralardagi ma'nolar izohlanadi. Bizga ma'lumki, mumtoz matnlarni tahlil qilganda, avvalo, gaplarning grammatik qurilishiga e'tibor berish kerak. O'qituvchi qit'adagi misralarni sintaktik tahlil qilib, uni inversiyadan chiqarish bilan gap bo'laklarini odatdagi tartibga keltirish va jumalarning ma'nosini aniqlashni o'quvchilarga topshiradi. O'quvchilar qiyinchiliksiz ma'noni tushunib oladilar. Qo'shma gap qismlarini odatdagi tartibda shakllantiramiz: "Kimki maxluq xizmatig'a kamar bog'lasa, beli ushalgani yaxshiroqdir. Qo'l

qovushtirgandan ko'ra uning egni chiqsa, qo'li sinsa yaxshiroqdir". Endi ma'no soddalashib, o'quvchilar uchun tushunarli bo'lib qoladi. Ikkinchi bayt: *"Agar xushomad qilishni boshlasa, dami tutilgani, tili kesilgani yaxshiroqdir".* Ushbu gap ham shart ergash gapli qo'shma gapga misol bo'la oladi. *Dami tutilgani, tili kesilgani* kabi uyushiq bo'laklarning kelishiga ham diqqat qaratib, izohlanadi.

Mumtoz matnlarni tahlil qilganda ona tili o'quv fani bilan bog'lagan holda fanlar integratsiyasidan foydalanish zarur. Gap bo'laklarini tahlil qilishni o'rganamiz. Kimki maxluq xizmatig'a kamar bog'lasa, beli ushalagani yaxshiroqdir. Maxluq so'zidagi – *ning* qaratqich kelishigi belgisiz qo'llangan. Maxluqning qaratqich, xizmatiga so'zi to'ldiruvchi qaralmish vazifasida kelgan. kamar bog'lamoq – qo'shma fe'l bilan ifodalangan kesim, beli ushalgani sifat-dosh bilan ifodalangan murakkab ega. Shu tariqa gap bo'laklarini tahlil qilish ham o'rganiladi.

"Shoir she'rida tasvirlangan g'oya, tuyg'u, obraz, ruhiy manzaralarni o'z nomi bilan aytishga erishish, – deb yozadi adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul, – ular bag'ridagi yashirin ma'no va badiiy sirlarni tahlil tilida ifodalash – haqiqatning bosh mezonini mana shudir"[3; 41-b.].

3. Uqish. Xushomadgo'ylik haqida o'quvchilar o'z fikrlarini ifoda etadilar. Lekin ayni o'rinda "maxluq" so'zidan ko'zda tutilgan ma'no boshqa, ya'ni bu orqali yaramas va tuban kishilar nazarda tutilmoqda. Bu qanday insonlar? Ular boshqalarning o'ziga xushomad, tilyog'lamalik qilishini yoqtiradigan va shunga ko'ra muomala qiladiganlar kimsalardir. Zinhor buni ota-ona, ustoz va boshqa hurmatga loyiq kishilarga ehtirom bildirish bilan adashtirmaslik kerak. Bunday illatga ega odamlar hech qachon vafo qilmasliklarini, boshingga musibat tushganida sendan osongina voz kechib ketishlarini hayotiy misollar orqali dalillab beradilar. Bunday insonlarga umuman ishonmaslik va aldanmaslik kerak. Xushomadgo'y til – aldoqchi. U avrab-aldaydi, aldab dog'da qoldirishni xohlaydi. Hazrat Navoiy bunday makrboz tillarning kesilishini tilaganida naqadar haq bo'lganlar"[3; 41-b.].

4. Xulosa. "Qo'ling sinsin!", "Tiling kesilsin!", "Nafasing o'chsin!" – bular xalqning qarg'ish iboralari. Mir Alisher Navoiyning xushomad va tilyog'lamalikka munosabati naqadar salbiy

bo'lganligini shundan ham anglash mumkinki, u kishi xushomadgo'yni qarg'ishga loyiq deb hisoblaydi. O'quvchilardan xushomadgo'ylikni qoralovchi qanday asarlarni bilasiz? – deb savol beriladi. O'quvchilar darslikda o'tilgan Said Ahmadning "Sobiq", Chexovning "Buqalamun" asarlari bilan qit'ani integrativ yondashuv asosida tahlil qila oladilar. Tahlildan keyin o'qituvchi xushomadgo'ylikning yomon illat ekanligini, inson doimo samimiy va oqko'ngil bo'lishga intilishi zarurligi haqida hayotiy misollar keltirib, xulosa qiladi.

Qit'a tahlil qilingach, she'riy san'atlarni aniqlanadi. Chunki o'quvchilarning tahlil qilishdagi ko'nikmalarini oshirish uchun she'riy san'atlarni aniqlash topshirig'i beriladi. Yuqoridagi qit'ada ta'did (ma'noni darajalab kuchaytirib borish) va tanosib (beli, egni, ili (qo'li), tili va dami (nafasi)) singari she'riy san'atlardan o'rinli foydalanilgan. O'quvchilar bu san'atni tushunishda qiyinchilikka duch kelishmaydi, chunki 5-sinfda ona tili fanida o'tilgan uyadosh so'zlar mavzusi bilan tanishganlar. Shu bois qit'alar tahliliga integrativ yondashib, adabiyot fanini ona tili fani bilan bog'lab tushuntiriladi. Tilimizdagi barcha so'zlar ongimizda ma'lum mazmuniy uyalarga birlashgan holda saqlangani sababli so'zlar xotirada mustahkam saqlanish va nutqiy jarayonda ulardan oson foydalanish imkonini beradi. O'quvchilarga qit'ani qayta o'qib undagi uyadosh so'zlarni topishga harakat qiladilar.

Mumtoz asarlarni o'qitishda qo'llanadigan metodlar janrlar shakli va mazmuniy o'ziga xosligidan kelib chiqishini taqozo qiladi. Eng kichik janr bo'lmish fardlarni o'rganishda **"Bir fardda necha haqiqat?" metodi** yaxshi natija berishi amaliyatda o'z tasdig'ini topdi. Mazkur janr namunalarini o'rganishni qanday tashkillashtirish bo'yicha fikrlarimizni bayon etamiz.

Avvalo darslikdagi ma'lumotlar o'zlashtiriladi. 7-sinf adabiyot darsligida[1; 123-b.] qit'alardan so'ng Navoiy fardlari berilgan. Darslikda berilgan ma'lumotga qo'shimcha qilgan holda, fardda dolzarb, salmoqli falsafiy-axloqiy g'oyalar ifodalanadi. Fardning qisqa va ixchamligi shoirdan "Ming ma'nini bir nuqta bila muxtasar etish"ni (Mashrab) taqozo etadi. Fard janriga xos erkinlik shoirning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi, ijodiy erkinligini ta'minlaydi. "Shoir she'rida tasvirlangan g'oya, tuyg'u, obraz, ruhiy

manzaralarni o'z nomi bilan aytishga erishish, – deb yozadi adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul, – ular bag'ridagi yashirin ma'no va badiiy sirlarni tahlil tilida ifodalash – haqiqatning bosh mezonini mana shudir"[4].

Fard haqida ma'lumot berilgandan so'ng, fardlar tahlil qilinadi. Tahlilda darsliklardagi savol va topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq, chunki ular bolalarni o'ylash, izlanishga undaydi. Darslikda fardlarni o'rganishda maqollardan foydalanilgan. Fardlarning berilishi, tahlilni yengillashtirish uchun lug'atlarning berilishi ham e'tiborga molik:

*Kishi aybing desa, dam urmag'ilkim, ul erur ko'zgu,
Chu ko'zgu tiyra bo'ldi, o'zga aybing zohir aylarmu?*

Tiyra – xira
Zohir – ochiq, ayon.

Matn ustida ishlashda g'azal va qit'a janrlarini o'rganishdagi amallardan foydalaniladi, chunki ular har qanday mumtoz matn bilan ishlashning o'ziga xos universal, foydali shakllaridir. Eng asosiysi, shoir aytgan fikrni aniqlashtirib olish darkor. Quyidagi topshiriqda matn bilan ishlash, undan ma'noni uqish bilan bog'liq o'quvchining bajaradigan vazifasi aniq ko'rsatilgan: *Juft-juft bo'lib ishlang. Navoiy fardlaridan namunalarni o'qing va tahlil qiling. Har bir fardning g'oyasini bitta gap bilan ifodalang yoki unga mos maqol toping.*

Bularning barchasi zikr qilingan metodni qo'llashning tayyorgarlik bosqichi bo'lib, ulardan so'ng asosiy bosqichga o'tiladi. O'quvchilar farddagi mazmunni, uning badiiy ifodasini o'zlashtirgandan so'ng o'zlari uchun qanday haqiqat (lar)ni kashf qilganlarini aytishlari va izohlashlari lozim. O'rganilgan dars materiallari qanchalik hayot bilan bog'lansa va o'quvchilarning ruhiy-ma'naviy olamiga, kundalik yashash tarziga kirib borsa, ulardan muqim o'rin olsa, shunchalik mustahkam va uning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy natijasi yuqori bo'ladi. Aksariyat o'quvchilar shunday bir haqiqatni bu farddan topadilar: boshqa bir kishi aybing, (xataakteringdagi) kamchiliklarni aytsa, darrov e'tiroz

bildirmaslik (dam urmaslik) kerak. Asoslash uchun maqol ham keltiradilar: do'st achitib gapirar, dushman kuldirib.

Bu tahlildan keyin boshqa bir o'quvchi(lar) tamsil qilingan maqoldan xulosa qilib, farddan ikki haqiqatni chiqaradilar: 1- haqiqat: Kimdir ayb yoki kamchiligining aytsa, e'tiroz bildiraversang, ayblaring bir umr o'zingga hamroh bo'ladi. 2- haqiqat: Kamchiligingni aytgan kishi senga do'st ishini qilmoqda.

Uchinchi bir o'quvchi(lar) yana boshqa bir haqiqatni bildirishi mumkin: O'rinli tanbehga o'rinsiz e'tiroz – nodon kishining ishi, chunki hadisi sharifda aytilganidek: "Mo'min mo'minning ko'zgusi".

Darslikda bu fardga qarama-qarshi ma'noni ifodalayotganga o'xshaydigan boshqa bir fard keltirilgan.

*Kishi aybin yuziga qilma izhor,
Taammul ayla o'z aybingg'a zinhor.*

*Taammul aylamoq – fikr yuritmoq.
Izhor qilmoq – aytmoq.*

Yuqoridagi kabi didaktik amallardan quyidagi ma'no yuzaga chiqadi: Birovning aybini zinhor yuziga aytma, (yaxshisi) o'z aybing haqida fikr yurit.

O'quvchilarga fard haqida muammoli savol beriladi. Mazkur fard haqida yuqorida keltirilgan farddagi fikrlarni inkor qiladimi? Kishining aybini yuziga aytish salbiy odatmi? Shunday bo'lsa, ayni bir muallifning ikki xil mulohazasini qanday tushunish kerak?

O'quvchilarning erkin fikrlashlariga keng yo'l ochiladi, ular o'zlari idrok qilgan haqiqatlarni bayon qiladilar. Masalan: "Kishining aybini yuziga aytishning ijobiy tomonlarini ko'rib o'tdik. Bu hodisaning ikkinchi tomonini ham bilishimiz zarur", "Ayrin insonlarga aybini hammaning oldida aytish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. U o'zidagi ishonchni yo oilada, yo ish joyida yo'qotishi mumkin. Fardni hozirgi zamon voqeligi bilan bog'lasak ham bo'ladi. Kishi aybini aytishning salbiy oqibatlaridan biri internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali to'g'ri yoki noto'g'ri ma'lumotlarning tarqalishi bo'lib, ulkan psixologik zarbalarga olib kelishi mumkin" yoki "Kishi aybini aytish hamma vaqt ham to'g'ri kelavermaydi. Bu narsa kishiga juda qattiq ta'sir qilishi, jamiyatda,

oilada, ishda tushkunlikka tushishi, o'ziga bo'lgan ishonch yo'qolishi mumkin", kabi.

O'qituvchi barcha fikrlarni eshitib umumlashtiradi: eng asosiysi nimani, qachon, kimga va qanday aytishdadir. Tanbehni shunday aytish mumkinki, uni eshitgan kishi og'rinmaydi, aytuvchidan ranjimaydi, balki undan minnatdor bo'ladi. Yana shunday ifodalash mumkinki, unday aytgandan aytmagan a'lodir.

O'qituvchining vazifasi fardlar qiyoslab tahlil qilinganda yuzaga chiqqan fikr, ijobiy tuyg'ularni butun sinfga yoyishdir: "O'qituvchilar ma'lum bir o'quvchi yoki o'quvchilar guruhida yuzaga kelgan betakror hissiy holat yoki qarashni butun sinfga yoyish, ularning tuyganlari va ilg'aganlarini butun sinfning mulkiga aylantirish orqali boshqalarda ham shunday faoliyatga rag'bat uyg'otish layoqatiga ega bo'lishlari kerak. O'qituvchining tashkilotchiligi uning badiiy-kommunikativ vazifalarni nechog'lik uddalashida namoyon bo'ladi." [2;121-b.].

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar bilan berilgan mumtoz matnlarni to'g'ri tahlil qilsa, didaktik tomonlarini to'g'ri anglashga yordam bersa, ko'zlagan natijaga erisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik. Z.I.Mirzayeva, K.Q.Djalilov. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
2. Қодиров В. Умумтаълим мактабларида мумтоз адабиёти намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фанл. доктори (DSc) дисс. – Наманган, 2019.
3. Ҳаққул И. Камол эт касбким. – Тошкент: "Чўлпон" 1991.
4. <https://youtu.be/48uzEKDMPho>

QORAQALPOQ ADABIYOTINI O'RGANISH METODIKASI

**ÓSERBAY XOJANIYAZOV DÓRETIWSHILIGIN
ÚYRENIW TEXNOLOGIYALARI**



Konisbay YUSUPOV

*Qaraqalpaq universiteti professori
El-manzil: yusupovqonisbay@gmail.com*

Annotaciya. *Bul maqalada Ó. Xojaniyazov dóretiwshiliginiń ózine tán ózgeshelikleri hám olardı jaratıwda sheberlik máseleleri aytiladı.*

Tayanish sózler: *ádebiyat, ádebiyatshı, poeziya, poema, obraz, dóretiwshilik, stil, metod, janrlar, til, publitsistika.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'. Xojaniyazov ijodining o'ziga xos xususiyatlari va ularni yoritishda mahorat masalalari aytilgan.*

Kalit so'zlar: *adabiyot, adabiyotshunos, poeziya, poema, obraz, ijodi, stil, metod, janrlar, til, publitsistika.*

Ádebiyattı oqıtıwda oqıwshılardı jazıwshılardı dóretiwshiligin úyretiw pedagogika iliminde áhmiyetli metodikalıq máselelerdiń biri. Bul másele boyınsha belgili metodist alımlar S. Dolimov, H. Ubaydullaev, Q. Axmedov, Q. Yuldoshev, Q. Husanbaeva, R. Niyozmetova, Á. Paxratdinov, K. Yusupov h.t. basqalardıń metodikalıq miynetlerinde pikirler bildirilgen. Usı kózqarastan jazıwshı Óserbay Xojaniyazov dóretiwshiligin úyreniw texnologıyalarına toqtap ótemiz.

Oqıwshılardı dáslep baǵdarlamadaǵı berilgen materiallar tiykarında jazıwshı dóretiwshiliginıń izertleniwine, ádebiy toplamlarına sıpatlama berip, bunnan soń onıń dóretiwshiligin didaktikalıq hám filologiyalıq usıllarda tallap ótemiz. Bul usıllar arqalı oqıwshılardı bılayınsha túsiniw beremiz: XX ásir qaraqalpaq